

OLIY TA'LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA INGLIZ TILI FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI

1. Test variantining qo'llanish maqsadi

Ingliz tili fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismuassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga davlat ta'lism standartlari hamda chet tili (ingliz, nemis, fransuz tillari) faniga oid umumta'lum o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta'lismuassasalariga bakalavriatiga kirish sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lismuassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida” 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismuassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi” Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'limg-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori;
- Ingliz tili faniga oid amaldagi davlat ta'lism standarti va o'quv dasturlari.

3. Ingliz tili fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Ingliz tili fanidan **mutaxassislik fani sifatida** shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrashi va ta'limga keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi ta'lismuassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
	1. Grammatika
1.1	Ot. Atoqli va turdosh otlar. Otlarda son (birlik va ko'plik shakli). Otlarda kelishik. Donalab sanaladigan va donalab sanalmaydigan otlar. Artikl turlari (aniq va noaniq artikl, artiklning ishlatilmasligi). Son (sanoq va tartib sonlar).
1.2	Olmosh (kishilik, egalik, o'zlik, birlig, ko'rsatish, so'roq, nisbiy, guman olmoshlari)
1.3	Sifat (sifat darajalari: oddiy, qiyosiy va orttirma). Ravish (ravish darajalari: oddiy, qiyosiy va orttirma). Umumiy qoidalar va istisno holatlar

1.4	Fe'l zamonlari (hozirgi, o'tgan va kelasi zamon Simple, Continuous, Perfect, Perfect Continuous guruhlarida). Aniq va majhul nisbat. Fe'lning shaxsi noma'lum shakllari: Infinitiv va Gerund, (hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlari)
1.5	Modal fe'llar va ularning ekvivalentlari (Can, Could, May, Might, Must, Ought to, Should, Need, Have to).
1.6	Predloglar (oddiy predloglari, iboralar va birikmalar tarkibiga kiramagan predloglar). Bog'lovchilar, bog'lovchi so'zlar va birikmalar.
1.7	Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. Zamonlar moslashuvi. Shart ergash gaplar (zero, 1 va 2 turlari). So'roq gaplar (General questions, Special questions, Tag questions).
2. Leksika	
2.1	O'rganilgan mavzular bilan bog'liq leksik birliklar, so'z yasash elementlari, leksik birliliklarning ko'p ma'noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv, antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlar.
3. O'qish	
3.1	Gazeta va jurnallardan olingen xabarlar, e'lonlar, sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar, internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingen faktlarga asoslangan matnlar, qisqa rasmiy hujjatlar, badiiy asarlardan olingen parchalar, eslatmalar, asbob-uskuna va qurilmalarni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar.

5. Ingliz tili faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	Quyi kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> - til birliliklari (qo'shimcha, so'z va gaplar)ning leksik-grammatik xususiyatlarini bilish va tushunish; - grammatikaga oid asosiy qoida, tushuncha va atamalarni bilish va tushunish; - grammatik qoidalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushungan holda ularni gapda to'g'ri qo'llash.
2.	Yuqori kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> - o'rganilgan mavzular bilan bog'liq leksik birliliklarni mantiqiy fikrlagan holda to'g'ri qo'llay olish, gap tarkibida ma'nosini taxmin qila olish mumkin bo'lgan yangi so'zlarini to'g'ri qo'llay olish; - so'z turkumlarining grammatik xususiyatlarini tahlil qila olish; - matn mazmunini va uning asosiy g'oyasini tushungan holda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni, voqeа va hodisa sabablarini tahlil qilish; - rasmda tasvirlangan voqeа-hodisaning gap mazmuni bilan bog'liqligini tahlil qilish; - tahlil jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish.

6. Ingliz tili fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Ingliz tili faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari va chet tillar (ingliz, nemis, fransuz tillari) faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab qo'yilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida olinadi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar			Kodi
Ingliz tili	Nutqiy kompetensiya	O‘qish	Eslatma, gazeta va jurnallardan olingan xabarlar va e’lonlarni to‘liq tushuna olish.	1.1.1
			Ilmiy va sodda matnlar hamda badiiy asarlardan olingan parchalarning asosiy mazmunini tushunish, ma’lumotlarni qidirib topa olish va ular bilan ishlash.	1.1.2
			Ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan olingan parchalarning asosiy mazmunini tushunish hamda bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarga ilmiy yondashish, mantiqiy fikrlagan holda ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, bir-biriga bog‘lab xulosa chiqarish.	1.1.3
			Grafik, jadval yoki rasmlli matnning strukturaviy va semantik bog‘liqligini tushunish. Ilmiy-ommabop matnlar, badiiy asarlardan olingan parchalardagi ma’lumotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, spesifik ma’lumotlarni tushunish, asosiy va yordamchi (ikkinchi darajali) g‘oya (fikr)larni, matn maqsadini aniqlash; dalil va sabablarni aniqlagan holda ma’lumotlarni qismlarga ajratish, xulosa qilish va xulosani isbotlovchi asoslarni topish.	1.1.4
	Lingvistik kompetensiya	Grammatik kompetensiya	Atoqli va turdosh otlar, otlarda son (birlik va ko‘plik shakli), otlarda kelishik, donalab sanaladigan va donalab sanalmaydigan otlar, artikl turlari (aniq va noaniq artikl, artiklning ishlatalmasligi), son (sanoq va tartib sonlar)ni bilish.	2.1.1
			Kishilik, egalik, o‘zlik, birgalik, ko‘rsatish, so‘roq, nisbiy, gumon olmoshlarini bilish.	2.1.2
			Sifat, sifat darajalari (oddiy, qiyosiy va orttirma), ravish turlari, ravishlarning yasalishi, ravish darajalarini (oddiy, qiyosiy va orttirma). Umumiy qoidalar va istisno holatlarni bilish.	2.1.3
			Fe’l zamonlari (hozirgi, o’tgan va kelasi zamon Simple, Continuous, Perfect, Perfect Continuous guruhlarida), aniq va majhul nisbat, fe’lning shaxsi noma’lum shakllari (Infinitiv va Gerund)ni bilish.	2.1.4
			Modal fe’llar va ularning ekvivalentlari (can, could, may, might, must, ought to, should, need, have to)ni bilish.	2.1.5

		Predloglar (oddiy va guruh predloglari, iboralar va birikmalar tarkibiga kiradigan predloglar), bog‘lovchilar, bog‘lovchi so‘zlar va birikmalarni bilish.	2.1.6
		Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar, zamonlar moslashuvi, shart ergash gaplar (zero, 1 va 2 turlari) bilish va tushunish.	2.1.7
Leksik kompetensiya		O‘rganilgan mavzular bilan bog‘liq leksik birliklarni mantiqiy fikrlagan holda to‘g‘ri qo‘llay olish, keng tarqalgan, kundalik va kasbiy vaziyatlarda ishlataladigan so‘z va so‘z birikmalarini bilish.	2.2.1
		So‘z yasash elementlari, leksik birliklarning ko‘p ma’noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv, antonim, sinonim va boshqa umumleksik munosabatlar, tili o‘rganilayotgan mamlakatga xos bo‘lgan replika-klishelarni qo‘llashni bilish.	2.2.2
		Grafik, rasm yoki chizma yordamida ifodalangan fikrni tushunish.	2.2.3

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.